



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Usmonov Salohiddin

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Urgut filiali "Pedagogika va jismoniy madaniyat" kafedrasida o'qituvchisi

Jo'rayeva Rayhona

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Ta'lim sifatini oshirishda 4K modeli, interfaol metodlar, raqamli platformalar va innovatsion o'qitish usullarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, tanqidiy yondashuvi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi metodlar tavsiya etilgan. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida motivatsiyani oshirish, dars samaradorligini kuchaytirish hamda bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari asoslab berilgan. Maqola natijalari boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash pedagogik samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, 4K modeli, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, raqamli ta'lim, innovatsion yondashuv, boshlang'ich ta'lim, kompetensiyaviy ta'lim.

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of the effective use of modern pedagogical and information technologies in primary education. The importance of the 4K model, interactive methods, digital platforms, and innovative teaching methods in improving the quality of education is analyzed. New methods are also recommended to develop students' independent thinking, creativity, critical thinking, and communicative competencies. The study substantiates the advantages of modern technologies that increase motivation among primary school students, enhance lesson effectiveness, and connect knowledge with practice. The results of the study show that the use of innovative approaches in primary education increases pedagogical effectiveness.

Key words: modern technologies, 4K model, interactive methods, creative thinking, digital education, innovative approach, primary education, competency-based education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного использования современных педагогических и информационных технологий в начальном образовании. Анализируется важность модели 4К, интерактивных методов, цифровых платформ и инновационных методов обучения для повышения качества образования. Также предлагаются новые методы для развития у учащихся самостоятельного мышления, креативности, критического мышления и коммуникативных компетенций. Исследование обосновывает преимущества современных технологий, повышающих мотивацию учащихся начальной школы, улучшающих эффективность уроков и связывающих знания с практикой. Результаты статьи показывают, что использование инновационных подходов в начальном образовании повышает педагогическую эффективность.

Ключевые слова: современные технологии, модель 4К, интерактивные методы, креативное мышление, цифровое образование, инновационный подход, начальное образование, компетентностно-ориентированное образование.



KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining keyingi bilim olish jarayoniga poydevor yaratishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda an'anaviy o'qitish usullaridan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish zaruratga aylanmoqda.

Ayni paytda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shundaki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Hozirgi zamon o'quvchisi faqat tayyor bilimni eslab qoluvchi emas, balki mustaqil izlanuvchi, muammoni tahlil qiluvchi, ijodiy fikrlovchi va jamoa bilan ishlay oladigan shaxs sifatida shakllanishi lozim. Bunga esa interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv orqali erishiladi. Ayniqsa, yangi avlod darsliklarida joriy etilgan 4K tamoyili o'quvchilarning kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativ va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlardan takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanish ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasiga, ularning bilim saviyasiga, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlariga, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishiga hamda ijodkorlikning qay darajada shakllanganligiga bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi va madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilaridan biriga aylanadi.

Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning:

“Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik”,^[1] – degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili bo'yicha ishlab chiqilganidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

4K nima degani? Boshlang'ich sinflarda qo'llanishi boshlanayotgan yangi tamoyil haqida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i Dilshoda Norboyeva batafsil ma'lumot berdi: 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

1. **Kollaboratsiya:** Darsliklar o'quvchi-yoshlarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.
2. **Kommunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.
3. **Kreativ fikrlash:** O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
4. **Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, suhbat va diagnostik baholash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdagi faolligi, mustaqil fikrlash darajasi, kreativ yondashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida an'anaviy va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'zaro taqqoslandi. Interfaol metodlar qo'llangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi, mavzuni eslab qolish ko'rsatkichi va jamoaviy ishlash kompetensiyasi tahlil qilindi. Shuningdek, ta'lim jarayonida 4K modeli asosidagi kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativ va kritik fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratildi ^[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy metodlarning o'quvchilar faolligiga, dars samaradorligiga va bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ta'siri tahlil qilindi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning darsga qiziqishi sezilarli ravishda oshgan. Ayniqsa, guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirgan.

Tahlillar natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va muloqotga kirishish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mavzu yuzasidan fikr almashish, savollarga javob berish va muammolarga yechim topishda faolroq ishtirok etdilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyalari hamda jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarning qiziqarli va mazmunli tashkil etilishiga imkon yaratdi. Raqamli ta'lim vositalari, interaktiv taqdimotlar va multimedia materiallari o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam berdi. Natijada bilimlarni eslab qolish darajasi hamda amaliy topshiriqlarni bajarish sifati an'anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq bo'ldi.

4K modeli asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik va kritik fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida sezilarli ijobiy natijalar qayd etildi. O'quvchilar guruhli faoliyat jarayonida hamkorlik qilishni, o'z fikrini asoslab berishni hamda muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishni o'rgandilar. Bu esa ularning nafaqat fanlarni o'zlashtirishiga, balki hayotiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.



Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar va izlanishlar orqali ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Estoniya, Angliya va Finlandiya kabi ta'limda ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA va PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqotchilik va yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishmoqda.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkent shahrida respublikaning turli hududlaridan yig'ilgan 300 dan ortiq trener-o'qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o'qituvchilarning malakasini oshirishga yordam beradi. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi va fikrlashi o'z ichiga olish mumkin. Masalan, kollaboratsiya ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda loyiha tayyorlashdi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bildirdi va yakunda umumiy natijaga erishildi.

XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat ^[4].

Hozirgi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Jumladan, U.Sh. Begimqulov ta'lim muassasalarida kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasini yaratish zarurligini, multimedia va gipermatn texnologiyalarini, o'qitishda imitatsiya hamda kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi.

Shu boisdan, o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirishga mo'ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov bu masalada: "...bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi lozim"¹, deb ta'kidlaydi ^[5].

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va bunda o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 23.05.2025 yildagi PQ-191-son² qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 20.04.2022 yildagi 200-son³ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'qituvchi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2006-yil 16-fevraldagi 25-son⁴ qarorining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi ^[6].

Ayniqsa, quyidagi innovatsion metodlar yuqori samaradorlik berdi:

"Raqqamli izlanish xaritasi" metodi

Bu metodda o'quvchilar planshet yoki telefon orqali QR-kodlar yordamida topshiriqlarni topadi va bosqichma-bosqich bajaradi. Ushbu metod o'quvchilarning mustaqil ishlash, tezkor fikrlash, axborotni izlab topish hamda texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Jonli loyiha" usuli

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, real hayot bilan bog'liq kichik loyihalarni tayyorlaydi. Masalan: "Mening ekologik maktabim", "Orzudagi kutubxona", "Kelajakdagi sinf xonasi".

Bu usul o'quvchilarda kreativlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Bir daqiqalik ekspert" metodi

Dars yakunida har bir o'quvchi mavzu bo'yicha 1 daqiqa davomida o'z fikrini bildiradi. Natijada nutq ravonligi, erkin fikrlash va muloqot madaniyati rivojlanadi.

1 <https://api.ziynet.uz/uploads/books/702588/5aeaccd3c32f8.pdf>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7540329>

3 <https://lex.uz/docs/-5970701>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-973504>

“Virtual sayohat” usuli

Tabiatshunoslik, tarix yoki ona tili darslarida virtual ekskursiyalar tashkil etiladi. Masalan, videolar va 3D tasvirlar orqali muzeylar, tarixiy obidalar hamda tabiat maskanlari bilan tanishtiriladi. Bu metod o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi.

“Aqliy konstruktor” metodi

O'quvchilarga muammo beriladi va ular turli yechimlarni “g'oya bo'laklari” orqali yig'adi. Mazkur metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tahlillar natijasida quyidagi pedagogik natijalarga erishildi:

- o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllandi;
- jamoa bilan ishlash madaniyati rivojlandi;
- o'quvchilarning AKTdan foydalanish malakasi yaxshilandi;
- darslarning qiziqarli va samarali tashkil etilishi ta'minlandi ^[7].

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni eslab qolish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 4K tamoyili asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning kreativligi, kommunikativligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga keng joriy etish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish zarur. Har bir maktabda zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan “Innovatsion sinf”lar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Darslarda QR-kodli topshiriqlar, virtual ekskursiyalar va interaktiv platformalardan foydalanishni kengaytirish lozim. O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun loyiha asosidagi ta'limni ko'paytirish kerak. Sun'iy intellekt asosidagi ta'limiy platformalarni boshlang'ich ta'limga moslashtirish tavsiya etiladi. “Bir daqiqalik ekspert”, “Raqamli izlanish xaritasi”, “Aqliy konstruktor” kabi innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish foydali bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish lozim. Ota-onalarni ham raqamli ta'lim jarayoniga jalb qilish orqali “maktab–oila hamkorligi”ni kuchaytirish tavsiya etiladi.

O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilishi, o'quvchilar bilimini baholashning kompyuter tizimi va o'zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun, avvalo, zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish sifatini tashxis qilishga bog'liqdir. Ya'ni uning holatini aniqlamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarish, ta'limda ma'lum bir maqsadga erishishning iloji yo'qligi hech kimda shubha tug'dirmaydi.

O'quvchilarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta'lim jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, ularning qo'yilgan didaktik talablarga haqiqatan mosligini nazorat qilish mumkin. Bunda pedagogik tashxis o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, ma'lumotlarni yig'ish va statistik ma'lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o'z ichiga oladi.

Metodik adabiyotlarda o'quvchilar o'zlashtirishlarining tashxisi ular tomonidan erishilgan yutuqlarning darajasini qayd etish ekanligiga e'tibor qaratiladi. Unda pedagogik tashxisning maqsadi ta'lim jarayoni borishini tahlil qilish va uni o'z vaqtida baholashdan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonini bunday baholash faqat o'quvchining o'zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o'qish jarayonini rag'batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg'otish orqali o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir etadi. Shu xilda o'quvchini obyektiv baholash asosida unda individ sifatida o'z-o'zini baholash imkoniyati tug'iladi va o'z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabatning shakllanishi qayd etiladi.

Shu nuqtayi nazardan o'quvchi bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, ayniqsa, bilimlarni nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimi zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarda bilimlarni nazorat qilishning tashxisiy ahamiyati va haqqoniyligini ta'minlash maqsadida doimiy izlanishlar hamda takomillashtirish ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

Mazkur masalaning yechimi o'qitishning maqsadga muvofiq va haqqoniy bo'lishida, iloji boricha aniq va asoslangan usul sifatida qayd qilinadi. Kompyuter texnologiyalari asosidagi o'quvchilar bilimini nazorat qilish faqat mutaxassis o'qituvchilar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.



Bunday texnologiyalarni monitoring tizimiga joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining axborotga va bilimga bo'lgan ehtiyoj hamda qiziqishlarini faollashtirishga erishish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Norboyeva D. "4K modeli va zamonaviy ta'lim samaradorligi". // Xalq ta'limi jurnali, 2024, №3.
3. Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'limda 4K modeli asosida darslarni tashkil etish metodikasi. - Toshkent, 2024.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdagi PF-6108-son5 Farmoni. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. - Toshkent, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.